

Toshkent shahridagi xalqaro Vestminster universitetida o'tkazilgan "O'zbek tili -qalbim tarjimoni"
ko'rik tanlovi yig'ilishi

BAYONI

2025 yil 7 oktabr

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi: N.Kodirov -Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy bilan
ishlash bo'yicha birinchi prorektor

Kotib: F.Ismagilova- universitet katta tyutori

Qatnashdilar: G.Bektemirova- Talabalarni qo'llab-quvvatlash
departamenti direktori, G.Sultanova-Madaniyat va
ijodkorlik markazi rahbari, E.Ahadova, B.Begimqulov-
universitet katta tyutorlari.

KUN TARTIBI:

- 1.TXVU da tahsil oluvchi xorijiy talaba yoshlar o'rtasida o'tkazilgan "O'zbek tili -qalbim tarjimoni" ko'rik tanlovining universitet bosqichi o'tkazilganligi to'g'risida.
2. TXVU da tahsil oluvchi xorijiy talaba yoshlar o'rtasida o'tkazilgan "O'zbek tili -qalbim tarjimoni" ko'rik tanlovining universitet bosqichi g'olibini saralash bosqichiga tavsiya etish to'g'risida
- 3.TXVU da tahsil oluvchi xorijiy talaba yoshlar o'rtasida o'tkazilgan "O'zbek tili -qalbim tarjimoni" ko'rik tanlovining universitet bosqichi g'oliblarini taqdirlash to'g'risida.

Ma'ruzachilar: Yoshlar bilan ishlash bo'yicha birinchi prorektor N.Kadirov,
Talabalarni qo'llab-quvvatlash departamenti direktori G.Bektemirova



Yig'ilishda kun tartibidagi birinchi masala yuzasidan Yoshlar bilan ishlash bo'yicha birinchi prorektor N.Kadirov: O'zbek tili -qalbim tarjimoni" mavzusidagi Respublika ko'rik- tanlovining universitet bosqichi TXVU da tahsil oluvchi 17 nafar xorijlik talaba yoshlar qatnashish istagini bildiganliklari va tanlov aynan 17 nafar xorijlik talaba o'rtasida o'tkazildi.

Bunda ko'rik- tanlovining tartibiga ko'ra 90 daqiqa esse yozishlari xorijlik talabalarining yozgan esse va o'zini tanishtirish bo'yicha videolavha tashkiliy qo'mita tomonidan tuzilgan Saralash komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilgani va yuqori ball topлагan talabalar saralab olinganligi, ular uch nafar ekanliklari va eng yuqori ball topлагan talaba ko'rik tanlovining saralash bosqichiga tavsiya etilishi to'g'risida to'xtalib o'tdi.



Kun tartibidagi ikkinchi masala yuzasidan talabalarni qo'llab-quvvatlash departamenti direktori G.Bektemirova o'tkazilgan ko'rik tanlovda xorijlik talabalar faol ishtirok etganliklari, ularning o'zbek tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishlari quvonarli hol ekanligi, shuningdek ko'rik tanlovning unversitet bosqichida ishtirok etgan, yuqori ball olgan talabalarni rag'batlantirilishi haqida alohida to'xtalib o'tdi. Shuningdek, bunday tanlovlarning doimiy ravishda o'tkazilib borilishi talaba-yoshlarning bilim va dunyoqarashini kengaytirish, xorijiy talabalarining tajribasini o'rganish, madaniy muloqotni rivojlantirish hamda ularning ijodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Xorijiy talabalar bilan o'tkazilgan insholar tanlovidan kutilayotgan natijalar sifatida esa, talabalar o'rtasida do'stona aloqalar mustahkamlanishi, o'zaro madaniy almashinuv kuchayishi va iqtidorli yoshlarning aniqlanishiga erishiladi.

Yuqorida bildirilgan fikrlarni inobatga olgan holda

QAROR QILINDI:

- 1.TXVU da tahsil oluvchi xorijiy talaba yoshlar o'rtasida "O'zbek tili -qalbim tarjimoni" ko'rik tanlovining universitet bosqichi qoniqarli o'tkazildi deb hisoblansin.
- 2.Tanlovda ishtirok etgan uch nafar g'olib talabalar esdalik sovg'alari bilan taqdirlansinlar.
- 3.TXVU da tahsil oluvchi xorijiy talaba yoshlar o'rtasida "O'zbek tili -qalbim tarjimoni" ko'rik tanlovining universitet bosqichi g'olibi Mashhura Shakirova ko'rik tanlovining saralash bosqichiga tavsiya etilsin

Yig'ilish raisi:

N.Kodirov -Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlash bo'yicha birinchi prorektor

Kotib:

F.Ismagilova- universitet katta tyutori